

JONDOR TUMANIDAGI KUNDALIK TURMUSHDA QO‘LLANADIGAN SHEVAGA OID SO‘ZLAR

Boltayeva Mahfuza Shukrulla qizi

Buxoro davlat universiteti

o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası magistranti

m.boltayeva@buxdu.uz

***Annotatsiya:** Ushbu axborotda Jondor tumanida yashovchi aholining kundalik turmushda qo‘llaydigan ba‘zi dialektal so‘zlar tasnif etilgan. Ular ma‘noviy guruhga ajratilib, qo‘llanilishi va vazifasi haqida ma‘lumot berilgan. Shevaga xos so‘zlarda asosan fors-tojik tilining ta‘siri ko‘proq seziladi.*

***Kalit so‘zlar:** sheva, adabiy til, etimologiya, ma‘noviy guruh, leksika.*

***Аннотация:** В этой информации классифицированы некоторые диалектные слова, используемые жителями округа Джондор в их повседневной жизни. Они разделены на духовные группы и предоставлены сведения об их использовании и функциях. Влияние персидско-таджикского языка более заметно в диалектно-специфических словах.*

***Ключевые слова:** диалект, литературный язык, этимология, семантическая группа, лексика.*

***Annotation:** In this information, some dialectal words used by the inhabitants of Jondor district in their daily life are classified. They are divided into spiritual groups and information about their use and function is given. The influence of the Persian-Tajik language is more noticeable in the dialect-specific words.*

***Keywords:** dialect, literary language, etymology, semantic group, vocabulary.*

Dunyo tilshunosligining dialektologiya sohasida dialektal hodisalarning mukammal areal tavsifini yaratishda muayyan ishlar bajarilib, shevalar bo‘yicha to‘plangan dialektal materiallar asosida xalqlarning hayoti va turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan juda ko‘plab so‘zlar adabiy tilga olib kiritilmoqda. Bu soha bo‘yicha tadqiqot ishlari kengayib, hind-yevropa tillari E.A.Makayev, slavyan tillari R.I.Avanesov, N.I.Tolstoy, german tillari V.M.Jirmunskiy, roman tillari M.A.Borodina, bolqon tillari A.V.Desnitskayalar tomonidan o‘rganilib, salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda [Jo‘rayev B. 1963. –B.78].

Ma'lumki, areal lingvistikaning lisoniy-jug'rofiy tahliliy usuli ma'lum hududda tarqalgan til hodisalarini aniqlaydi, hududiy til xususiyatlarini o'rganib, ularning o'rni va tarqalish chegarasini xaritalar orqali ko'rsatadi. Shuning uchun muayyan xalq shevalarining lingvistik xaritalarini yaratish soha taraqqiyotini ta'minlaydigan muhim omillardan hisoblanadi.

Jahon tilshunosligida bu sohaning taraqqiy etishi ko'plab lingvistik xaritalarni yuzaga keltirdi. XX asrning boshlarida jahonga mashhur bo'lgan Jan Jileron, Edmonlar tomonidan 12 jildli "Fransuz tili atlasini", Venkker, Vredelarning "Nemis tili atlasini", Moskva rus tili institutida R.I.Avanesov, B.A.Larin boshchiligida "Moskva sharqidagi Markaziy viloyatlar rus xalqi shevalari atlasini", "Shimoli-g'arbiy viloyatlar rus xalqi shevalari atlasini" tuzildi [Shoabdurahmonov Sh., 1962. –B.320]. Bunday lingvistik xaritalar dunyo xalqlari shevalaridagi biror so'zning turli xil fonetik variantlarda uchrashi yoki unda narsa va hodisalarning turli nom bilan atalishi ushbu shevalarning o'ziga xos sharoitda rivojlanishi, hudud shevalarining o'zaro ta'siri va boshqa tillarning hudud shevalari munosabatiga bog'liq ekanligini ko'rsatib berdi.

Tilimizning shevalarini o'rganish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Bu jarayon "Devoni lug'otit turk" asari bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu asar o'z sahifalarida sheva, lahja tushunchalarining ilk tavsifi va tasnifini muhrlagan. Bu holat asarning shevalarni o'rganishdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Buxoro viloyati hududidagi shevalar har xil tipda bo'lib, ular o'zbek tilining qarluq-chigil uyg'ur, o'g'uz va qipchoq lahjalariga mansubdir. Qarluq-chigil uyg'ur lahjasiga mansubdir. Buxoro dialekti o'z xususiyatlariga ko'ra, mahalliy o'g'uz va qipchoq shevalariga qaraganda, o'zbek adabiy tiliga yaqin turadi. Ko'p sonli o'zbekcha, xususan tojik va arab tillaridan kirgan so'z, iboralar va grammatik shakllarning qo'llanilishi, talaffuzi hozirgi o'zbek adabiy tili normalariga mosdir. Shu ma'noda aytish mumkinki, Buxoro dialekti, ayniqsa uning ikki tilli" shevasi (samarkand shevasi kabi) hozirgi zamon o'zbek adabiy tilidagi forscha-tojikcha va arabcha suzlar hamda grammatik shakllarning qo'llanishini normalashtirish va stabillashda asosiy rol o'ynaydi [Mirzayev M. 1965. –B.].

O'zbek tilshunosligida bugungi globallashtirish sharoitida ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar tilga ta'sir etishini inobatga olib, shevalarni areal yo'nalishda o'rganishga e'tibor qaratilmoqda. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Yoshlarni milliy hamda umuminsoniy an'ana, qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy merosidan g'ururlanish va ularni yanada boyitish ruhida tarbiyalash" zarur. Shu bois xalqimizning milliy qadriyatlarini yosh avlodga yetkazish uchun ham shevalarning lingvistik xaritalarini yaratish davr talabidir. "Areal lingvistika muayyan hududlarda

tarqalgan til xususiyatlarini umumlashtirib, areal umumiylik-tillar ittifoqi, shevalar izoglossalarini aniqlash va ularni xaritalashtirish ishlarini amalga oshiradi”.

Shevalarda har bir xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, ma'naviy madaniyati bilan bog'liq leksik qatlami mavjudki, ular o'sha xalq tarixining tadrijiy taraqqiyoti bilan boyib kelgan. SHu ma'noda ham har bir so'z tarixdir. Agar xalq shevalari hozir o'rganilmasa ular vaqt o'tishi bilan iste'moldan chiqadi. Shuning uchun xalq shevalarini to'plash, dialektal xaritalarini yaratish eng dolzarb masala ekanligi bilan ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, turkiyshunoslikda N.Baskakov, M.Sheraliyev, E.Sevortyan, N.Gadjiyeva kabi olimlar tomonidan turkiy tillar va ularning shevalari keng tadqiq qilingan. Areal lingvistika sohasida katta tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. M.A.Borodinning ta'kidlashicha, areal lingvistika dialektologiya, lingvistik geografiya va arealogiyaning o'zaro munosabati va mantiqiy davomi sifatida yuzaga kelgan.

O'zbek dialektologiyasi sohasida ham juda katta ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilib, o'zbek shevalarining tasnifi va tavsifi yaratildi. Bunda o'zbek shevalarini yaxlit holda o'rganishga bag'ishlangan V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Shermatov, S.Ibrohimov, F.Abdullaev, M.Mirzayev, B.Jo'rayev, X.Doniyorov, O.Madrahimov, N.Rajabovlarning monografik tadqiqotlari alohida e'tiborga molik.

Bir qator turkolog olimlar o'z dialektologik klassifikatsiyalarida Buxoro hamda Samarqand va Xo'jand shaharlarining tojik va o'zbek tillarida so'zlashuvchi – ikki tilli aholisi nutqini tekshirib, uni tojik tili elementlarini maksimum uzlashtirgan Samarqand-Buxoro gruppasi shevalari deb hisoblaganlar.

Shunday qilib, bir tilda so'zlashuvchi aholi nutqi – bir tilli sheva xususiyatlari hisobga olinmagan. Bu hol bizning oldimizga shunday konkret vazifani ko'ndalang qilib qo'ydi: a) Buxoro viloyatidagi o'zbek shevalarini (ikki tilli va bir tilli o'g'uz va qipchoq shevalari) yoppasiga o'rganib chiqish va tasvir etish; b) Buxoro hududidagi o'zbek Shevalarining klassifikatsiyasini berish.

Mahalliy shevada Buxoro viloyatidagi aholi etnik sostavi bilan birga bog'ab tekshirish shuni ko'rsatdiki, ikki tilli aholi har xil turkiy urug'-qabila xalk vakillaridan o'zbek tilini yaxshi biluvchi tojiklar, o'zbek urganjilar (ya'ni ota-bobolari Urganch bo'lgan), sobiq mang'it urug'-qabilasiga mansub b o'lib keyinchalik atrofdagi tojiklarning tilini o'rganib olgan. Lekin o'z ona tillarini saqlab qolgan boshka turkiy etnik guruhlardan iborat. Demak, ikki tilli tojik va o'zbek tillarida s o'zlashuvchi aholini (ikki tilli sheva vakillarini) etnik tomondan faqat tojiklardan iborat deyish t o'g'ri b o'lmaydi.

Buxoro viloyatining mahalliy aholisi o'rtasida ikki tillilikning quyidagi tiplari mavjud: tojikcha-o'zbekcha (yoki o'zbekcha-tojikcha) ikki tillilik, o'zbekcha-qozoqcha ikki tillilik, turkmancha-o'zbekcha ikki tillilik. Ikki tillilikning eng qadimiy k o'rinishi tojikcha-o'zbekcha ikki tillilikdir. Chunki bu viloyat territoriyasi bo'ylab (Qorako'l, Tomdi rayonlaridan tashqari) aholining uchdan bir qismini tashkil etadi. Tojikcha-o'zbekcha ikki tillilik protsessi hozirgi kunlarda tugagan emas, balki o'zbek va tojik xalqlari o'rtasida tobora o'sib borayotgan o'zaro do'st-lik va hamjihatlik munosabatlariga bog'lik ravishda (ayniqsa Buxoro va Samarqand sharoitlariga muvofiq) rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunlarda ikki tillilikning yangi tipi - o'zbekcha-ruscha, tojikcha-ruscha, qozoqcha-ruscha kabi shakllarda vujudga keldiki, baynalmilal xarakterdagi bu jarayon, boshqa joylardagi kabi, keng quloq yoymoqda.

Buxoro shevasida eski turk tili va eski o'zbek tiliga xos bo'lgan ayrim elementlar mavjud bo'lib, ular nutqda, ayniqsa, keksalar tomonidan ko'p qo'llaniladi. Ular dialektologiya va til tarixi uchun ham muhim material bo'lib xizmat qiladi.

XX asrning 20-30-yillarida, ayniqsa, rivojlandi va o'zbek shevalarining biz bilmagan yangi qirralari ochila boshlandi. Bu sohada G.O.Yunusov, U.Tursunov, A.Fitrat, E.D.Polivanov, S.Ibrohimov, V.V.Reshetov, Sh.Abdurahmonov singari tilshunos olimlar samarali faoliyat olib borganlar.

Shuni aytish mumkinki, o'zbek tilshunosligining dialektologiya sohasida shevalarning mukammal tavsifi yaratilgan, juda katta ilmiy tadqiqot ishlari qilingan, biroq, o'zbek shevalarining yangi tahlil usullari, xususan, areal yo'nalishi yetarli darajada o'rganilmagan. Bu Buxoro vohasi Jondor shevasi leksikasiga ham tegishlidir [To'ychiboyev B., Hasanov B. 2004. –B. 125].

Jondor shevasi o'zbek shevalarini areal yo'nalishda o'rganish asosida yuzaga kelgan tadqiqot natijalari nafaqat o'zbek tili tarixi uchun, balki turkologiya fani uchun ham zarur ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi asoslangan. Jondor shevasi o'zbek shevalari bo'yicha to'plangan dialektologik materiallarning tahliliy natijalari mazkur hudud shevalari lug'at tarkibidagi so'zlar o'zbek adabiy tilini boyitish uchun xizmat qilishi dalillangan.

Jondor shevasi o'zbek shevalari bo'yicha tuzilgan lisoniy xaritalari tadqiq etilayotgan shevalar lug'aviy birliklarining tarqalish areallarini belgilash, shevalararo hududiy farqlarni aniqlash, shuningdek, hudud tilining boshqa o'zbek shevalari bilan munosabatini aniqlash, til tarixiy taraqqiyotining ba'zi masalalarini hal qilishi, o'zbek tilining dialektologik atlasini uchun manba vazifasini o'tashga xizmat qilishi asosida yaratilgan. Jondor tuman hududlarining sheva elementlarini bir qancha mavzu guruhlariga ajratish mumkin: taom nomlari, oshxona anjomlari, kundalik ro'zg'orda ishlatiladigan so'zlar, to'y va marosimga oid so'zlar va boshqalar.

Buxoro viloyati Jondor tuman hududlarining sheva elementlarini bitta ma'naviy guruhini ko'rib chiqamiz. Quyida biz Buxoro viloyati Jondor tumanida kundalik ro'zg'orda ishlatiladigan sheva so'zlardan yig'dik:

Muro'tigardon – uy hayvonlarini bog'lash uchun ishlatiladigan arqonga ulanadigan aylana shakldagi temir. Bundan arqon bir-biriga chatishib ketmasligi uchun qo'llaniladi.

Yunti – meva va sabzavotlar po'chog'i. Ovqat qoldiqlari.

Qo'rlik – Qatiq ivitish uchun sutga solinadigan ozgina qatiq; tomizg'i, oqliq.

Do'mmiq – o'simliklarning tagi, yon-atroflarini chopib yumshatish.

Qitti(gina) – oz miqdordagi narsa va buyumlarga nisbatan aytiladi.

Ushuk – hikoyat, rivoyat, qissa, voqea.

Kelinbarmoq – o'rikning uzun va yuzi yaltiroq turi.

Qandiro'g'an – saryog', yanchilgan novvot, bodiyom solib chaqaloq uchun tayyorlanadigan quvvat beruvchi yegulik.

Jo'rob – supurish-sidirish, tozalash uchun burgan, shuvoq, makkasupurgi va shu kabilardan dastalab bog'lab yasaladigan ro'zg'or buyumi.

Kasav - o't, olovni to'g'rilash va tortish kabilar uchun ishlatiladigan yog'och yoki temir tayoq.

Suplik – kerakli qismi ishlatilgandan so'ng qolgan narsalar, qoldiq.

Qapchuq – asosan, pul solib, yonda, cho'ntakda olib yuriladigan xaltacha; karmon.

Birxilchikin – boshqalardan biror jihatdan yoki butunlay farq qiladigan; o'zgacha, boshqa, bo'lakcha.

Gavra/gavara – chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun tol yoki tut yog'ochidan yasalgan yo'rg'a oyoqli maxsus moslama; tebratma belanchak.

Ittik – gard-g'ubor, xiralik va shu kabilardan xoli, ravshan ko'rinishli.

Xo'skor – uylanuvchi yigit tomonidan biror xonadonning voyaga yetgan qizini ko'rish va uni kelin qilib berishga qiz tomon roziligini so'rash uchun vakil qilingan kishi, sovchi.

Ollag/illag/oldag – hozirdan oldin sodir bo'lgan voqea-hodisa.

Guppi cholish – suzmaning tarkibidan yog'ini olish jarayoni (bunda avval suzmani katta chuqur laganga solib qo'l bilan yaxshilab aylantirib ustidan muzdek suv oz-oz solinadi va suv yuzidagi yog'lar yig'ib olovda eritiladi).

Basaka/bakasa – kim o'zish, kim yaxshi natijalarga erishish uchun bo'lgan bellashuv.

Gonago – hamma vaqt ham emas, har zamon, har zamonda.

Bobichi – belgining avvalgi holatiga nisbatan kuchli, ortiq ekanini bildiradi.

Nishxo‘rt – chorva mollarining yemishlaridan qolgan qoldiq.

Ulbayoqi – umuman bo‘lmagan, biror marta ham sodir bo‘lmagan.

Tappot – quyoshning eng issiq vaqti.

Yuqorida keltirilgan qisqacha sharh sheva so‘zlarining izohini beruvchi maxsus lug‘at namunasi hisoblanadi. Biz ushbu axborotda Jondor tumani qishloqlari aholisi nutqidagi ayrim lug‘aviy birliklar hamda ularning mavzu guruhini ajratdik. Ma‘lum bo‘ladiki, Jondor tumani aholisi tilida turli lahjalarga oid elementlar uchraydi.

Jondor shevasi o‘zbek shevalari bo‘yicha to‘plangan faktik materiallar “O‘zbek shevashunosligi” va “O‘zbek tili tarixi” darslarida o‘zbek adabiy tilining tayanch dialektlari (qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalari)ning tarixiy ildizlarini bilish va ulardan xabardor bo‘lish, talabalarning o‘zbek tilining qadimiy tillardan biri ekanligi to‘g‘risida ma‘lumotlarga ega bo‘lishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Buxoro viloyatining Jondor shevasi o‘ziga xos leksik xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu hudud shevasi fors-tojik tili hamda o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi ta‘siri ostida shakllangan. Hudud shevasida fors-tojik tilining ta‘siri turli nomlar, xususan, meva, o‘simlik, uy-ro‘zg‘or va boshqa guruh so‘zlar misolida namoyon bo‘ladi. Jondor shevasiga xos jihatlarni aniqlash orqali o‘zbek tilining tarixiy shakllanish jarayoni hamda bu tilning qanday tillar bilan aloqada bo‘lganligi, ularning o‘zaro ta‘siri haqida xulosalar chiqarish imkoni yaratiladi. Jondor dialektiga oid qator leksikalarda tilning etimologiyasi hamda hudud doirasida saqlanib qolgan urf-odat hamda an‘analarning mavjudligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. - Т.: Фан, 1963. –Б. 78.
2. Kilichev b.E. Til tizimi va ma‘naviy munosabat muammosi. Monografiya. – Buxoro, Buxoro nashr. 2022. – 118 b.
3. Kilichev B.E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro, Durdona, 2023. – 212 b.
4. Kilichev B.E. Onomastika. O‘quv qo‘llanma. –Buxoro, Durdona, 2023. – 180 b.
5. Kilichev B.E., Boltayeva M.Sh. Jondor tuman shevasining ayrim ma‘no guruhlari haqida/ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 391) Jan.2023.
6. Kilichev B.E., Safarova M.Z. The Concept of Totemism and Ethnonym. Central asian journal of literature, philosophy and culture. Volume: 03 Issue: 05 May 2022.

7. Мирзаев М.М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари: филология фанлари доктори дисс. – Тошкент, 1965 – 461-б.

8. Рахмонов Н.С. Ўзбек тили Навоий вилояти шевалари морфологик хусусиятларининг лингвоареал тадқиқи: филол.фанл...фалсафа докт. диссер. – Самарқанд, 2018. – 164 б.

9. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. Б.125.

10. Шобдурраҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. -Т.: Фан, 1962. Б. 320